ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-3

KO'P O'ZGARUVCHILI FUNKSIYALARNING HOSILASI YORDAMIDA IFODALARNI SODDALASHTIRISH

[1] Usmonova Shaxlo, [2] Baxramova Mahliyo

[1]Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat Universiteti matematika fakulteti 2-kurs talabasi.

[2]Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat Universiteti matematika fakulteti 1-kurs talabasi.

e-mail: usmonovamath@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada ko'p o'zgaruvchili funksiyaning hosilasidan foydalanib, algebraik ifodalarni soddalashtirishni usullari keltirilgan.

Kalit so'zlar. Ko'p o'zgaruvchili funksiya va uning xususiy hosilalari, algebraik ifodalar, ko'p o'zgaruvchili funksiyasini integrallash.

SIMPLIFICATION OF EXPRESSIONS USING THE DERIVATIVE OF MULTI-VARIABLE FUNCTIONS

[1] Usmonova Shakhlo, [2] Bakhramova Mahliyo

[1]2nd year student of the Faculty of Mathematics, Samarkand State University named after Sharof Rashidov.

[2]1st year student of the Faculty of Mathematics, Samarkand State University named after Sharof Rashidov.

e-mail: usmonovamath@mail.ru

Abstract. This paper presents methods for simplifying algebraic expressions using the derivative of a multi-variable function.

Keywords. Multi-variable function and its partial derivatives, algebraic expressions, integration of a multi-variable function.

УПРОЩЕНИЕ ВЫРАЖЕНИЙ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ПРОИЗВОДНОЙ МНОГОПЕРЕМЕННЫХ ФУНКЦИЙ

[1]Усмонова Шахло, [2]Бахрамова Махлиё

[1]Студентка 1го курса математического факультета Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова.

[2]Студентка 2го курса математического факультета Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова.

e-mail: usmonovamath@mail.ru

Аннотация. В данной работе представлены методы упрощения алгебраических выражений с использованием производной многопеременной функции.

Ключевые слова. Многопеременная функция и ее частные производные, алгебраические выражения, интегрирование многопеременной функции.

Ko'p o'zgaruvchili funksiyalar nazariyasi matematikaning asosiy tushunchalaridan biri bo'lib, ushbu nazariya [1]-[5] adabiyotlarda yetarlicha o'rganilgan. Shuningdek, ko'p o'zgaruvchili

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

funksiyaning differensiali va xususiy hosilalari, ko‘p o‘zgaruvchili funksiyalarni integrallash kabi tushunchalar keltirib o‘tilgan.

Quyida keltiriladigan usulda algebraik ifodalar biror $f(x,y,z)$ ko‘p o‘zgaruvchili funksiya sifatida qaraladi va uning hosilasi va boshlang‘ich funksiyasi xossalaridan foydalaniladi.

1-misol. Quyidagi ifodani soddalashtiring:

$$A=(x+y+z)^3-(x+y-z)^3-(y+z-x)^3-(z+x-y)^3.$$

Yechimi. Shartda berilgan A ifodani ko‘p o‘zgaruvchili $f(x,y,z)$ funksiya sifatida qaraymiz:

$$f(x,y,z)=(x+y+z)^3-(x+y-z)^3-(y+z-x)^3-(z+x-y)^3. \quad (1)$$

Ushbu uch o‘zgaruvchili funksiyaning x o‘zgaruvchi bo‘yicha xususiy hosilasini topamiz:

$$f'_x(x,y,z)=3(x+y+z)^2-3(x+y-z)^2+3(y+z-x)^2-3(z+x-y)^2.$$

Yuqoridagi tenglikni soddalashtiramiz:

$$f'_x(x,y,z)=24yz.$$

So‘nggi tenglikdan quyidagi munosabatga ega bo‘lamiz:

$$f(x,y,z)=24xyz+f(0,y,z).$$

Endi (1) tenglikka $x=0$ qiymatni qo‘yamiz:

$$f(0,y,z)=(y+z)^3-(y-z)^3-(y+z)^3-(z-y)^3=0.$$

Demak,

$$f(x,y,z)=A=24xyz.$$

2-misol. Quyidagi algebraik ifodani soddalashtiring:

$$A=x(y^2-z^2)+y(z^2-x^2)+z(x^2-y^2).$$

Yechimi. Berilgan ifodani ham $f(x,y,z)$ ko‘p o‘zgaruvchili funksiya sifatida qaraymiz va uning x bo‘yicha xususiy hosilasini topamiz:

$$f(x,y,z)=x(y^2-z^2)+y(z^2-x^2)+z(x^2-y^2), \quad (2)$$

$$f'_x(x,y,z)=y^2-z^2-2xy+2xz=(y^2-z^2)-2x(y-z).$$

So‘nggi tenglikdan quyidagi munosabatga ega bo‘lamiz:

$$f(x,y,z)=(y^2-z^2)x-x^2(y-z)+f(0,y,z).$$

(2) tenglikka $x=0$ qiymatni qo‘yamiz:

$$f(0,y,z)=yz^2-zy^2=yz(z-y).$$

Demak,

$$f(x,y,z)=(y^2-z^2)x-x^2(y-z)-yz(y-z),$$

$$f(x,y,z)=-(y-z)(x-y)(x-z).$$

3-misol. Quyidagi ifodani soddalashtiring:

$$A=(x+y)^3+(y+z)^3+(z+x)^3-3(x+y)(y+z)(z+x).$$

Yechimi. Ushbu ifodani ham ko‘p o‘zgaruvchili funksiya sifatida qaraymiz:

$$f(x,y,z)=(x+y)^3+(y+z)^3+(z+x)^3-3(x+y)(y+z)(z+x). \quad (3)$$

Endi $f'_x(x,y,z)$ xususiy hosilani topamiz:

$$f'_x(x,y,z)=3(x+y)^2+3(x+z)^2-3(x+z)(y+z)-3(x+y)(y+z),$$

$$f'_x(x,y,z)=6(x^2-yz).$$

Demak,

$$f(x,y,z)=2x^3-6xyz+f(0,y,z).$$

(3) tenglikka $x=0$ qiymatni qo‘yamiz:

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

VOLUME-5, ISSUE-3

$$f(0,y,z) = y^3 + (y+z)^3 + z^3 - 3yz(y+z),$$
$$f(0,y,z) = 2(y^3 + z^3).$$

Bundan esa $f(x,y,z)$ funksiyaning ko‘rinishini topamiz:

$$f(x,y,z) = 2x^3 - 6xyz + 2y^3 + 2z^3.$$

4-misol. Quyidagi ifodani ko‘paytuvchilarga ajrating:

$$A = xy(x-y) + yz(y-z) + xz(z-x).$$

Yechimi. Bu ifodani ham ko‘paytuvchilarga ajratish uchun yuqoridagi usuldan foydalanamiz. Ya’ni A ifodani $f(x,y,z)$ funksiya sifatida qaraymiz:

$$f(x,y,z) = xy(x-y) + yz(y-z) + xz(z-x). \quad (4)$$

Endi $f(x,y,z)$ funksiyaning x o‘zgaruvchi bo‘yicha xususiy hosilasini topamiz:

$$f'_x(x,y,z) = y(x-y) + xy + z(z-x) - xz,$$
$$f'_x(x,y,z) = 2x(y-z) - (y^2 - z^2).$$

Demak,

$$f(x,y,z) = x^2(y-z) - x(y^2 - z^2) + f(0,y,z).$$

(4) tenglikka $x = 0$ qiymatni qo‘yamiz:

$$f(0,y,z) = yz(y-z).$$

Bundan foydalanib, $f(x,y,z)$ funksiyaning ko‘rinishini topamiz:

$$f(x,y,z) = x^2(y-z) - x(y^2 - z^2) + yz(y-z),$$
$$f(x,y,z) = (y-z)(x-z)(x-y).$$

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. M.I. Skanavii. Matematikadan masalalar to‘plami. Toshkent: KitoBooKniga, 2013.
2. SH. Alimov, R. Ashurov. Matematik Analiz 2-qism. Toshkent: Mumtoz so‘z, 2018.
3. T. Azlarov, X. Mansurov. Matematik Analiz 2-qism. Toshkent: O‘qituvchi, 1989.
4. H. Norjigitov, A.X. Nuraliyev. Matematik Olimpiada Masalalari. Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyoti-matbuot uyi, 2020.
5. В.В. Вавилов, И.И. Мельников и др. Задачи по математики. Уравнения и неравенства. Москва: Наука, 1987.